

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI  
JIZZAX DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI  
TARIX FAKULTETI TARIX VA UNI O'QITISH  
METODIKASI KAFEDRASI**



**“AMIR TEMUR VA TEMURIYLAR  
DAVRIDAGI ILM-FAN VA MADANIYAT  
RIVOJINING JAHON TAMADDUNIDAGI  
O'RNI”**

**JIZZAX- 2021**

2. Mirziyoev Sh.M., Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. -T.: “O’zbekiston”, 2017.
3. Asqarov A., O’zbekiston mustaqilligi sharoitida tarix fanining vazifalari. /O’zbekistonda ijtimoiy fanlar/. -T.: 1992 yil, №7,8.
4. Ibn Arabshoh, Amir Temur tarixi, II jild. -T.: “Mehnat”, 1991.
5. N.Shomiy, Zafarnoma. -T.: “O’zbekiston”, 1996.
6. Sh.A.Yazdiy, Zafarnoma. -T.: “Kamalak”, 1996.
7. Temur tuzuklari. -T.: “G’.G’ulom nashriyoti” 1991.
8. Mo’minom I.M., Amir Temurning O’rta Osiyo tarixida tutgan o’rni va roli. -T.: “Fan”, 1991.
9. Xukxem X., Vlatitel semi sozvezdiy. -T.: Izdatelstvo “Adolat”, 1995.
10. Muhammadjonov A., A.Temur va temuriylar sultanati. -T.: “Qomuslar” bosh tahririyati, 1991.
11. Rui Gonsales de Klavixo. Samarqandga Amir Temur saroyiga sayohat kundaligi. (1403–146 yillar). -T.: “O’zbekiston”, 2010.

## **“...BIZ KIM – MILLATLARNING ENG ULUG’I, TURKNING BOSH BO’G’INIMIZ !”**

JDPI magistranti - **Bobojonov Safar**  
Ilmiy rahbar: dots. **Aqchayev Farruh**

Sohibqironning hayotiy faoliyatiga bag’ishlangan juda ko’p manbalar o’rganilib, ulardagi ma’lumotlar keng kitobxonlarga taqdim etilgan bo’lsa-da, bu ulug’ zot faoliyatining ba’zi tomonlari ko’pgina muxlislar, xususan, hozirgi yosh avlodlar uchun qiziqarlidir. Chunonchi, ko’pchilikni Amir Temurning ajdodi kim bo’lgan yoki ularni nima uchun barloslar deyishadi? kabi qator savollar qiziqtiradi.

Amir Temurning tug’ilib, ulg’aygan joyi haqida tarixiy manbalarda, ayniqsa, hozirgi olimlar fikrlarida ham bir xillik yo’q. Masalan, o’tmishdagи tarixiy manbalardan Sharafiddin Ali Yazdiyning bergen ma’lumotlariga ko’ra Sohibqiron hijriy 736- sichqon yil (milodiy 1336 yil 8-9 aprel) da Qashqadaryo viloyatining Kesh (Shahrisabz)dan o’n

uch chaqirim uzoqlikda bo'lgan Hoja Ilg'or qishlog'ida (keyingi davrlarda bu qishloq Yakkabog' tumaniga ham qo'shilgan), barlos Tarag'ay Muhammad bahodir oilasida dunyoga kelgan. [Sharafiddin Ali Yazdiy, 1997. 192-bet.] (Ushbu o'rinda izohlash lozimki "barlos" urug'-qabila nomi, "bahodir" esa jasoratli, dovyurak, botir kabi yuksak qobiliyatlarga egallikni anglatadi). Salohiddin Toshkandiyning "Temurnoma" asarida esa Sohibqironning tug'ilib o'sgan joyi ota-onasining dargohi emas, balki Amir Chokuning xonadoni-Zanjir Saradir. Zanjir Sara (saroy) (Qarshi shahri yaqinida) deb ko'rsatiladi. [Salohiddin Toshkandiy, 1991. 88-bet] Barloslarning nasl-nasabi haqida turlicha fikrlar mavjud. Ba'zi olimlar ularni mo'g'ullar urug'idan deb talqin etadilar. Bu fikrga qo'shilib bo'lmaydi.

Akademik Ahmadali Asqarov tomonidan barloslar bo'yicha aytilgan quyidagi fikrlar, ayniqsa xarakterlidir. Olim o'zining ishlarida bu sohada ko'pgina o'tmish tarixiy va so'nggi davrlar manbalarini tahlil etgan. Jumladan, u o'zining "O'zbek xalqining etnogenezi va etnik tarixi" asarida Nizomiddin Shomiyning "Zafarnoma" asari [Nizomiddin Shomiy 1996. 21-bet] asosida barloslar haqida muhim ma'lumotlarni qayd etgan. Chunonchi, baroslarning asl vatani Onon va Qurulun daryosi havzalarida bo'lgan. Ular chingiziylar sulolasiga qadar ham o'ziga xos mavqeiyga ega bo'lgan turkiy qabilalar sanalgan. Chingizzon davrida esa ular ancha o'ziga xos nufuzga va ishonchli harbiy kuchga ega bo'lganlar. [A. Asqarov, 2007. 255-256-betlar]

Amir Temurning otasi Barlos Amir Tarag'ay Muhammad Bahodir (vafoti 13601) ham barlos amirzodalari avlodidan sanalgan. Onasining ismi Tegina xotin bo'lgan. [Temur tuzuklari, 1996. 14-bet] Manbalarda yozilishicha, Temurning otasi Kesh viloyatidagi nufuzli amirlaridan biri bo'lgan va hozirgi Shahrisabz tumanidan 20-22 km sharqda Tanxoz daryosining o'ng sohilida joylashgan Niyoziy (Achig'i) nomidagi hududlar Amir Tarag'ayning merosiy mulki hisoblangan. [Azamat Ziyo, 2001, 154-bet] Amir Temur ham ana shu barlos amirzodalar oilasida voyaga yetgan. Temuriylar sulolasi davrida sultanatning siyosiy hayotida juda katta nufuzga ega bo'lgan.

Rashididin barloslarning ilk ajdodlari turk edi, deydi. Keyichalik ular yozma manbalarda mo'g'ullarning Nurin qabila ittifoqi tarkibida tilga olinadi. Aslida Barloslar turkiy tilli qabilalardan bo'lishgan. Ular turkiy tilda so'zlashsalarda uzoq davr mobaynida mo'g'ul qabila ittifoqi tarkibida bo'lib, mo'g'ul tili va urf-odatlarini yaxshi o'zlashtirganlar. Xitoyshunos olimi A.Yu.Zuyev barloslar kelib chiqish jihatidan turkiy xalq bo'lган, degan xulosaga kelgan. Amir Temur va uning vorislari ham o'zlarini barlos turklaridan deb hisoblaganlar. Shuning uchun ham Amir Temur sultanatni qo'lga kiritgan davrda, 1370-yilgi Balx qurultoyida turk-mo'g'ul udumlariga amal qilib, xon nomini olishdan voz kechgan va o'zini amir deb atagan. [A. Asqarov, 2007. 255-256-betlar] Ammo xon bajaradigan barcha vazifalar amir zimmasida qolgan, umuman davlatni boshqaruvi Temurning qo'lida bo'lган. Bosh amir-Oliy hukmron (davlat, hukumat boshlig'i, hukmdor- xon) sifatida barcha vazir va amirlar (hokimlar) hamda tobe mamlakatlar Amir Temurga bo'ysungan. (Bu soha davlatni boshqaruvi tizimi masalasiga xos bo'lib maxsus fikr yuritish talab etiladi) Ushbu o'rinda qayd etish lozim bo'ladiki, ba'zi tarixiy manbalarda turk-mo'g'ul an'anaviy udumlarga zid keladigan fikrlar ham bayon etilgan. Chunonchi, taniqli tarixnavis olim Azamat Ziyo hamda Poyon Ravshanov Amir Temur va Chingizzonning avlod-ajdodlari birligi haqidagi o'tmis manbalardagi rivoyat asosidagi fikrlarga qarshi mulohazalarni bildirishgan. [Azamat Ziyo, 2001, 175-bet; Ravshanov P, 1997. 10-бет] Azamat Ziyoning yozishicha, "Amir Temuring chingiziylardan bo'lmish Qozonxonning qizi Saroy Mulkxonimga (1337-1408) uylanishi, ya'ni xon avlodiga kuyov (ko'ragon), qarindosh bo'lishi uning siyosiy mavqyeini rasman bo'lsa ham mustahkamlashga xizmat qilgan.

Amir Temur va Chingizzon bir-biriga amakivachcha emas, balki begonadir. Temurning nasl-nasabi turkiyzabon barlos urug'idir. Chingizzoning urug'-aymog'i "jeti" [Sanaqulov U, 2011. 124-bet] ko'chmanchi mo'g'ul qavmidir. Ular o'rtasidagi qarindoshlik faqat xon avlodiga (chingiziylarga) kuyov (ko'ragon) bo'lishi bilan bog'lanadi, xolos. Zero Amir Temur bobomizning o'zlari "Biz kim-mulki Turon,

amiri Turkistonmiz! Biz kim – millatlarning eng ulug’i, Turkning bosh bo’g’inimiz!” deb bekorga aytmaganlar.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Sharafiddin Ali Yazdiy. “Zafarnoma”. T.: “Sharq”. 1997.
2. Salohiddin Toshkandiy “Temurnoma” T. 1991.
3. Nizomiddin Shomiy. “Zafarnoma”. T.: “Sharq”. 1996.
4. Asqarov A. O’zbek xalqining etnogenezi va etnik tarixi. T.: “Universitet”, 2007.
5. Temur tuzuklari, T.: “O’zbekiston”, 1996.
6. Azamat Ziyo. O’zbek davlatchiligi tarixi. T.: “Sharq”. 2001.
7. Ravshanov P. Temurnoma (“Temurnoma” haqida so’z), T.: “Sharq”. 1997.
8. Sanaqulov U. Amir Temur hayoti bilan bog’liq tarixiy lavhalar. SamDCHTI nashri, 2011.

## **TEMUR TUZUKLARINING YARATILISHI**

**Burxonov Lazizjon JDPI**, magistranti  
Ilmiy rahbar: dotsent **Raya Nurqulova**

Bir yarim asr mobaynida mo’g’ullar zulmi ostida toptalgan, ezilgan Movarounnahrning siyosat maydonida paydo bo’lgan Amir Temurni faqat o’z manfaatlari uchun kurashga chiqdi, desak yoki uning «Tuzuklari» faqat o’zi uchun zarur edi, degan xulosaga borsak, haqiqatdan yiroqlashib, tor fikrlar doirasiga tushib qolgan bo’lamiz. Manbalarda e’tirof etilishicha, Sohibqiron

mamlakat taxtiga o’tirgan birinchi kunlaridanoq, ya’ni 1370 yil aprel oyidanoq davlat ishlarini qonuniy hujjatlar asosida yuritishga harakat qiladi. Bu fikrni oydinlashtirish zarurati shu xususda kengroq to’xtalib, batafsilroq mulohaza yuritishni taqozo qiladi. Agar Amir Temur o’z davlatini qonunlar asosida barpo etmasa, bunday davlatning nufuzi, salohiyati, obro’siga putur yetar va uning hukmdori ham yuqori darajada tan olinmasdi.

## MUNDARIJA

**So'z boshi.** Tarix fakulteti dekani t.f.n. dots. A.H. Pardayev..... 3

### I BOB. G'ARB VA O'ZBEKISTON OLIMLARI NIGOHIDA AMIR TEMUR DAVLATINING ICHKI VA TASHQI SIYOSATI.

<i>B.M. Mirkomilov., S.R.Raimov.</i> Amir Temur va temuriylar davrida tasviriy va amaliy san'atning ravnaqi.....	5
<i>A. Pardayev., Anorboyev B.</i> Jahon harbiy san'at tarixida Amir Temurning o'rni.....	10
<i>F.E.Toshboev., Muzaffarova M.</i> Amir Temurning diplomatik aloqalari tarixiga oid.....	14
<i>F.Aqchayev., Qovulov J.</i> Sohibqiron Amir Temur buyuk buniyodkorlik siymosi.....	18
<i>A.Boltayev., S.Qobulov.</i> Amir Temur g'arb va O'zbekiston olimlari nigohida.....	25
<i>A.Xolmurodov., Mustanov S.</i> Amir Temur kuchli va qudratli davlat asoschisi.....	30
<i>B.M.Mirkomilov, Yusupov I.</i> Amir Temurning Hindistonga yurishi haqida.....	34
<i>A.S. Majidov, Abduvaliev O.</i> Amir Temur davri razvedka xizmati xususida.....	39
<i>Xamraev G'.G', Sattorov Sh.</i> Amir Temur va temuriylarning moliya-pul siyosati xususida.....	44
<i>Saidov J., Norqo'ziyev S.</i> Amir Temurning G'arbiy Yevropa davlatlari bilan diplomatik aloqalari.....	50
<i>Hasanboyev T.</i> Amir Temur va temuriylar davrida buyuk ipak yo'li.....	53
<i>F.Aqchayev., Bahromov U.</i> Amir Temur shaxsiyati va uning harbiy mahorati.....	58
<i>Каримова Н., Жалолов С.</i> Международные торговые отношения в эпоху Амира Темура.....	64
<i>Tilavova G., Zokirova M.</i> Amir Temurning Eron, Suriya va	

Iraq hudulariga yurishlari tarixi.....	72
<i>Xolmurodov D., Qodirov D.</i> Amir Temur va Mirzo Ulug‘bek davrida ijtimoiy-iqtisodiy hayot.....	75

## **II-BOB. “TEMUR TUZUKLARI”, UNING YARATILISHI VA O’RGANILISH TARIXI MASALALARI.**

<i>Raya Nurqulova, Eshonqulov U.</i> Temur tuzuklarida adolat masalasi.....	81
<i>F.E. Toshboyev, Lapasova M.</i> Amir Temur faoliyatida adolat tamoyillari.....	86
<i>Xolboyev Z., Saydamov Sh.</i> “Temur tuzuklari” davlat boshqaruvi.....	90
<i>B.M.Mirkomilov., Yunusova O.</i> Amir Temur davlat boshqaruvida adolat timsoli.....	94
<i>Aliyev M., Ahmatov O’.</i> Amir Temur hukmdorligi davrida axborot siyosati.....	97
<i>Abdurasulova D., Usmonov M.</i> Amir Temur – faxrimiz va iftihorimiz! .....	99
<i>Aqchayev F., Bobojonov S.</i> “...Biz kim – millatlarning eng ulug‘i, turkning bosh bo‘g‘inimiz!” .....	105
<i>Raya Nurqulova, Burxonov L.</i> Temur tuzuklarining yaratilishi.....	108

## **III. O’ZBEKISTON TARIXINI O’RGANISHDA TARIXSHUNOSLIK, MANBASHUNOSLIK, ARXEOLOGIYA VA ETNOLOGIYA MASALALARI**

<i>Mirkomilov.B.M.</i> Temur-Temuriylar davri sivilizatsiyasida me’morchilik va qurilish.....	113
<i>A.F.Majidov., Qulberdiyev U.</i> Milliy davlatchiligidan tarixining mumtoz namunasi.....	120
<i>Jumayev J., Abdumajitov J.</i> Amir Temur va Temuriylar davrida savdo yo’llarining ravnaqi xususida.....	125
<i>Валиев А., Мамадалиев М.</i> Вопросы социальной защиты в	

деятельности Амира Темура.....	130
<i>Razzoqova G.Q., Maratova G.</i> Amir Temur va Temuriylar davrida tomosha san'ati va musiqa.....	136
<i>Bobobekova Sh., Bobobekov R.</i> Amir Temurning o'zbek davlatchiligi tarixida tutgan o'rni haqida.....	140
<i>Muminova G., Abdullayev D.</i> Amir Temur me'moriy merosini o'rganishga doir ayrim mulohazalar.....	145
<i>Mirkomilov B.M., Rahmatov A.</i> Temuriylar davrida tomosha san'ati va musiqa.....	150
<i>J.E.Toshboyev., Abdugapparov B.</i> Amir Temur va Temuriylar davlatida hunarmandchilik ravnaqi.....	154
<i>A.S.Majidov., Yakubov H.</i> Temuriylar renessansida me'morchilik ravnaqi.....	158
<i>U.S.To'pchiyev., Nomozova M.</i> Amir Temur va Temuriylar davrida qishloq xo'jaligida bog'dorchilik sohasi ravnaqi.....	162
<i>A.K. Toshboyev., S.F. Furqatov.</i> Amir Temurning mamlakat obodonchiligi borasidagi faoliyat haqida.....	165
<i>Tugalov B., Axmadkulov N.</i> Jizzax vohasi arxeologik yodgorliklarining o'rganilishi xususida.....	170
<i>Davlatova H.</i> Jizzax vohasi tarixi – Mojarm.....	174